



# E CONF SERIES



**Scientific Conference on Multidisciplinary Studies**

**Hosted online from Bursa, Turkey**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

## **O'ZBEKISTON MAHALLIY FARG'ONA- TOSHKENT MUSIQA USLUBINI O'QITILISHI.**

Karimov Jahongir Tohirjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san`at yo`nalishi magistratura 1-kurstalabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada O'zbekistonning mahalliy musiqa uslublaridan biri bo'lgan Farg'ona-Toshkent musiqa uslubining o'qitish jarayoni o'rganiladi. Ushbu maqola musiqa uslubining tarixiy va madaniy ahamiyati, o'qitish metodikasi hamda bu yo'nalishda foydalaniladigan innovatsion yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona-Toshkent uslubi, o'zbek musiqa san'ati, musiqa ta'limi, o'qitish metodikasi, milliy madaniyat.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi O'zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu uslub o'zining betakror ohanglari va ijro usullari bilan ajralib turadi. Milliy musiqa san'atining bu turi o'ziga xos tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, uning o'qitilishi ta'lim jarayonida o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi.

Maqolada quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- Adabiy manbalarni tahlil qilish: Farg'ona-Toshkent uslubining nazariy asoslari va pedagogik ahamiyatini aniqlash maqsadida ilmiy ishlar va darsliklar o'rganildi.
- Eksperimental metod: O'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, o'qitish jarayonidagi samaradorlik baholandi.
- So'rvnomalar va intervju: O'qituvchilar va talabalardan olingan fikrlar asosida mavjud metodik muammolar tahlil qilindi.

Toshkent-Farg'ona mahalliy – musiqiy uslubi. Ma'lumki, ushbu katta hududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Hududning an'anaviy



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

musiqa ijodiyoti umummilliy, oziga xos mahalliy boshqa uzoq–yaqin qo’shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Tuzulishi jihatdan oddiy, ixcham hajmli mavzu va mazmun doirasi bo'yicha xilma-xil kuy, qo’shiq hamda ashulalar bu hududda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o’lkada bir qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzdagi cholg’u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo’shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo’lgan yana ko’plab terma, bolalar qo’shiqlari, lapar, yalla, ashula, cholg’u kuy, bir qismli va turkumli maqom yo’llari, ko’proq chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq joylarida esa dostonlar va yana katta yoki patnis (yovvoyi) ashulalar asosiy o’rin egallaydi.

Farqona vodiysi – Toshkentning bastakorlar ijodkorligiga molik misollari esa hajman kattaligi, tuzulishi nisbatan murakkabligi, ba’zida usluban mutloq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o’rinda, ayniqsa, katta ashula “milliy - mahalliy” jarayonga yorqin namuna bo’la oladi.

O’zbek milliy cholg’ularidan esa dutor, tanbur, sato, g’ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo’shnay, surnay, karnay, nog’ora, doyra kabilar juda ko’p qo’llanib kelingan. Farg’ona – Toshkent maqomi namunalari o’zlarining xalqchil, shinavandabop xalq ashulalariga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator hislatlar bilan ta’riflanadi. O’zbek tinglovchilari orasida mashhur bo’lib ketgan surnay maqom yo’llari, “yovvoyi” yoki “patnisaki” ashulalari, mumtoz cholg’u kuy hamda ularning noyob ijrochilik san’ati ham aynan shu hududning salohiyatli musiqa madaniyatiga xosdir. Farg’ona – Toshkent usulbi Farg’ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an’analarning majmuyidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo’shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an’analari o’z aksini topgan.

Farg’ona – Toshkent musqa uslubida bolalar folklori, xotin-qizlarning qo’shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg’u kuylari munosib o’rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagи bolalar folklori bo’lgan “boychechak”, “yomg’ir yog’aloq”, “laylak keldi”, “oftob chiqdi”, “chuchvara”, “chittigul” kabi qo’shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorimiz bo’ylab mashhurdir.



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

Xotin – qizlar davrasida lapar-u yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan "yor-yor", "kelin salom" va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytildi.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida "katta ashula" deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u odatda turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap-gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarda hofizlar tomomnidan ijro etib kelingan.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi Qozoqboev, Qobilboy baxshi kabi do'mbira chertib, doston aytuvchi baxshilar ham bo'lib, ularning repertuari asosan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Avazxon", "Shirin va shahar" kabi dostonlardan tashkil topgan.

Farg'ona – Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ularini, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab yakka yoki ansambl (dasta) shaklida namoyon bo'ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to'y marosimlarida surnay, karnay, nag'ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uy - xona sharoitida esa sadolanish nisbatan yumshoq cholg'ular, tanbur, g'ijjak, qo'shnay, rubob va boshqalar qo'llaniladi. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg'uning o'z o'rni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorning tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish maxsus "Qo'shtor", "Chertmak", "Dunyo bayoti" kabi kuylar bo'lmish bilan birga yana undan jo'rnavoz sifatida ham foydalilaniladi. Bu o'rinda dutor (doira kabi) xotin qizlar orasida keng ommalashgan cholg'udir. Ayni chog'da, ashulaga hofizlar ham dutorni tanbur bilan birga o'z ashula aytimlariga jo'rnavoz etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qo'shnay, g'ijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholg'usi hisoblanadi, ya'ni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan musiqachilar bo'lishi kerak.

Farg'ona – Toshkent cholg'u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan: "Dilxiroj", "Andijon polkasi", "Farg'onacha rez", "Tanovor", "Namangan olmasi", "Katta o'yin" kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma – taraf lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosim



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

aytimlari bo'lgan "yor – yor", "kelin salom" va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

O'zbekiston mahalliy musiqasi, jumladan, Farg'ona va Toshkent musiqa uslubi, o'zining betakrorligi va boy madaniy merosi bilan ajralib turadi. Bu musiqiy uslublarni o'qitish, avvalo, ularning madaniy, estetik va tarixiy ahamiyatini talabalarga tushuntirish hamda amaliy ijro mahoratini rivojlanтирishni talab etadi. Quyida ushbu mavzuni o'qitish bo'yicha ba'zi asosiy yondashuv va yo'nalishlarni keltirib o'tamiz:

Mahalliy musiqa tarixi va xususiyatlarini o'rganish

- Farg'ona va Toshkent musiqa uslublarining kelib chiqishi: Ushbu uslublarning tarixiy rivojlanishini talabalarga tushuntirish, ularning qaysi davrlarda va qanday sharoitlarda shakllanganligini ko'rsatish.

- Musiqaning xususiyatlari: Farg'ona musiqa uslubi lirizm va nafislik bilan ajralib tursa, Toshkent uslubi ritmik energiyasi va jo'shqinligi bilan mashhur. Talabalarga bu farqlarni tushuntirish.

Nazariy bilimlarni rivojlanтирish

- Lad va ritm tizimi: Mahalliy musiqa ladlari, maqom tizimi va ularning ijro usullarini nazariy jihatdan o'rgatish.

- Asboblar va vokal texnikasi: Farg'ona va Toshkent uslublarida ishlatiladigan asboblar, xususan, dutor, tanbur, rubob kabi cholg'u asboblari haqida ma'lumot berish.

Amaliy mashg'ulotlar

- Ijro texnikasi: Talabalarni Farg'ona va Toshkent uslubidagi ashulalarni yoki cholg'u kuylarini o'rganishga yo'naltirish.

- Ansambl mashg'ulotlari: Talabalarga jamoa bo'lib ijro qilishni o'rgatish, mahalliy uslublardagi o'ziga xos ijro texnikasini mustahkamlash.

Interaktiv usullarni qo'llash

- Audiovizual materiallar: Farg'ona va Toshkent uslublariga oid videolar va yozuvlardan foydalanish orqali talabalarning qiziqishini oshirish.

- Mahalliy musiqachilar bilan uchrashuvlar: Tajribali musiqa ustozlari bilan seminar va darslar tashkil qilish.

Tadqiqot loyihalari va ijodiy ishlar



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

- Talabalar mustaqil ravishda Farg‘ona va Toshkent musiqiy uslublariga oid tadqiqot ishlarini olib borishi.

- Uslublar asosida yangi kompozitsiyalar yaratish.

### Mahalliy musiqa festivallari va tanlovlari

- Talabalarni mahalliy musiqaga bag‘ishlangan tanlov va festivallarda ishtirok etishga jalb qilish. Bu ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu uslublarni o‘qitish nafaqat madaniy merosni saqlashga, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga ham katta hissa qo‘shadi. Mahalliy musiqani o‘rganish orqali talabalar milliy musiqa madaniyatining boyligini anglab yetadilar va uni kelajak avlodga yetkazish mas’uliyatini his qiladilar.

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubini o‘qitishda duch kelinadigan asosiy muammolardan biri o‘qituvchilarning yetarli darajada tayyor emasligi va metodik materiallarning cheklanganligidir. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni chuqurroq singdirish uchun qo‘srimcha dasturlar ishlab chiqish zarurati mavjud. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bu muammolarni hal qilish imkoniyati borligi aniqlangan.

### Xulosa

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubining o‘qitilishi bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil qilish.

Farg‘ona-Toshkent uslubi bo‘yicha elektron resurslar va multimedia vositalarini yaratish.

O‘quv dasturlarini milliy qadriyatlar va zamonaviy talablar asosida boyitish.

Maqola yakunida milliy musiqa san‘atini rivojlantirish va uning yosh avlodga o‘qitilishini takomillashtirish bo‘yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilab berilgan.

### Adabiyotlar.

1. Yo‘ldosheva.S Xalq-urf odlat va an‘analari T 2003
2. O‘ZBEK FOLKLORI OCHERKLARI 1-TOM 1988YIL
3. Hayitova.O Xorazm qo‘sish ijrichilik an‘analari Toshkent 2006 y



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

4. Gaziyev, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 456-465.
5. Joraxanovich, G. J. (2023). PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MUSICAL EDUCATION. *Open Access Repository*, 9(11), 8-10.
6. Собиров, Ю. Б. (2021). МЕТОДЫ ИЗМЕРЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТОВ ОТРАЖЕНИЯ ЗЕРКАЛ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ПРОПУСКАНИЯ СТЕКОЛ. *Universum: технические науки*, (10-5 (91)), 5-12.
7. Gaziyev, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 260-262).
8. Gaziyev, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
9. Ахадов, Ж. З., & Абдурахманов, А. А. (2017). Теплоэнергетические параметры и балансовое распределение энергии парового котла солнечных высокотемпературных установок. *Computational nanotechnology*, (1), 71-74.
10. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
11. Шашнева, Е. Н., & Газакова, С. (2021). ОБРАЗОВАНИЕ В КУЛЬТУРЕ ТУРКМЕНИСТАНА. *Печатается по решению редакционно-издательского совета Шуйского филиала ФГБОУ ВО «Ивановский государственный университет»*, 266.
12. Akhmedov, B. (2023). THE FIRST FORMATION PROCESSES OF UZBEK VOCAL PERFORMANCE. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 126-128.
13. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
14. Sayfiddinovich, A. B. (2023). AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS IN MUSIC CLASSES OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS.



# E CONF SERIES



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

11<sup>th</sup> January, 2025

- 
15. Rakhimov, I. B. (2024). WAYS TO CREATE AND USE INTERNET RESOURCES IN GEOGRAPHY LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 595-599.
16. Rakhimov, I. B. (2024). METHODS FOR DETERMINING THE IMPACT OF LOCAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON HUMAN HEALTH. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION*, 1(01).
17. Ikhtiyor, R. (2024). Using the Kahoot Education Platform to Create E-Learning Resources in Geography Education. *Journal of New Century Innovations*, 67(4), 19-23.
18. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
19. Абдурахмонов, Б. М. (2023). УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КЛУБЫ КАК МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ВУЗАХ (ИЗ ОПЫТА КЛУБА "ГЕОГРАФ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ"). In *Современное географическое образование: проблемы и перспективы развития* (pp. 384-389).
20. Abduraxmonov, B. M. (2023). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARI UCHUN KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH. *Research and education*, 2(5), 319-325.
21. Суслов, В. Г., & Абдурахмонов, Б. М. (2020). Построение урока географии на основе деятельностного подхода. *География и экология в школе XXI века*, (2), 39-42.
22. Акабоев, И. З., Хакимов, М. М., & Турдалиев, И. Э. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КАРТ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Экономика и социум*, (6-1 (109)), 593-598.